

Isroilning Xolon texnologiyalar instituti bilan aloqalar o'rnatilmoqda

O'zbekistonning Isroildagi elchisi F.Y.Maxmudova ko'magida Isroilning Xolon texnologiyalar instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi va Urganch davlat universitetlari onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda Xolon texnologiyalar instituti prezidenti prof. E.Yakubov so'zga chiqib, O'zbekiston bilan ilmiy aloqalar o'rnatilgani va bu hamkorlikni Xorazm Ma'mun akademiyasi bilan o'rnatish zarurligini ta'kidladi. Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi b.f.d. I.I.Abdullayev Xolon texnologiyalar instituti vakillarini Akademiyaning faoliyati, qo'lga kiritilgan yutuqlari bilan tanishtirdi va kelgusida hamkorlikda ishlash mumkin sohalarga to'xtalib o'tdi.



Uchrashuv davomida Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari o'z loyihalari bilan isroillik olimlarni tanishtirdilar va tez kunda yana uchrashib batafsil rejalash ishlab chiqishga kelishdilar.